


# Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyida yangi ko'rgazma tashkil etildi

O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyida buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy yashagan davr, shoir hayoti, ijodi va adabiy muhiti, ustozlari va izdoshlari haqida hikoya qiluvchi asarlarning qo'lyozma va nashr nusxalari haqida atroflicha ma'lumot beruvchi adabiy-badiiy ko'rgazma ochildi. Ko'rgazma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilning 19-oktyabrda "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini nishonlash to'g'risida"gi PQ-4865 sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan.





Ko'rgazma muzeyning ikkinchi qavatidan o'rin olgan bo'lib, unda shoir asarlarining nodir qo'lyozma-manbalari, toshbosma kitoblar, turli yillarda yaratilgan miniatyuralarni ko'rish mumkin. Bundan tashqari, Davlat adabiyot muzeyi tashkil etilganidan buyon mavjud bo'lgan qimmatli tasviriy san'at namunalari bilan birgalikda, yaqinda muzey fondini boyitgan ijodiy tasviriy san'at namunalari ilk bor namoyish etilmoqda.







Ko'rgazmani boyitgan yana bir narsa shundaki, oxirgi yillarda yurtimizda va dunyoning turli nuqtalarida saqlanayotgan qo'lyozmalar, ularning faksimil nusxalari, nashr etilgan Navoiy asarlari, navoiyshunoslikka oid ilmiy adabiyotlar, ilmiy-tanqidiy matnlar va Davlat adabiyot muzeyining bir qator olimlari tomonidan chop etilgan kitoblar va kataloglar o'rin olgan. Xususan, "Hamsa"ning 1904-yil Toshkentda O.A.Partsev tipografiyasida chop etilgan nusxasi, shior lirik merosining Qozon, Moskva, Turkiyada nashr etilgan kitoblari, "Muhokamatu-l-lug'atayn"ning matnshunos olim Yu.Tursunov tomonidan tuzilgan ilmiy-tanqidiy matni kabi asarlarni ko'rish mumkin.



Muzey ekspozitsiyada shu paytgacha Chingiz Axmarovning “Navoiy lirikasiga monemuntal dekoratssiya” hamda “Yetti go’zal” portreti, M. Voronskiyning Navoiyning “Hamsa” dostoniga ishlagan “Shahzoda ovda” miniatyurasi alohida ahamiyat kasb etgan bo’lsa, bugun bu yerda Temur Sagdullayevning “Sab’ai-sayyor” dostoniga ishlangan Bahromning miniatyurali tasvirlarini, Abduhakim Karimovning “Qaro ko’zum” , “Farhod va Shirin”, “Laylining tushi”, “Layli va Majnun”, “Lison-ut tayr” kabi betakror san’at namunalari ko’rish mumkin.

Bundan tashqari, o’zbek xalqining ulug’ navoiyshunoslari Hamid Sulaymonov, akademik Aziz Qayumov, O’zbekiston Qahramoni Suyuma G’aniyeva, professor Saidbek Hasanov portretlari ham o’rin olgan.

Ko’rgazma yil oxirigacha muzeyga tashrif buyuruvchilar uchun xizmat ko’rsatadi.